INNOVATSION FAOLIYATNING MINTAQADA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI XUSUSIYATLARI	790
Fayziyeva Shirin Shodmonovna	
QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDA ETNOGRAFIK TURIZM KLASSTERINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	795
Kunnazarova Orazxan	
MAMALAKATIMIZ IMPORTI VA EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI	798
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
YEVROOBLIGATSIYA VA UNING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN EMISSIYASI	807
Avezov Ibrohim Ilxomovich	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	



IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi

Farg'ona davlat universiteti doktranti, i.f.f.d., dotsent

ORCID: 0000-0003-1132-6439

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotda kechayotgan keng ko'lamli innovatsion o'zgarishlar sharoitida to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion rivojlanishning zamonaviy global tendensiyalari, raqamli transformatsiya jarayonlari, texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, qiymat zanjiri samaradorligini oshirish va strategik boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi kabi omillarning to'qimachilik tarmog'i raqobatbardoshligiga ko'rsatadigan kompleks ta'siri yoritiladi. Shuningdek, maqolada korxonalar innovatsion salohiyatining shakllanish jarayoni, inson kapitalining o'rni, raqobat ustunliklarini yaratish mexanizmlari hamda barqaror rivojlanishga erishishning ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Olingan natijalar innovatsion iqtisodiyot sharoitida to'qimachilik korxonalarining strategik rivojlanish modellari va boshqaruv yondashuvlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, to'qimachilik sanoati, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, resurslarga asoslangan yondashuv, innovatsion salohiyat, qiymat zanjiri, strategik boshqaruv, texnologik modernizatsiya, inson kapitali, raqobat ustunliklari, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article provides an in-depth examination of the scientific and theoretical foundations for managing the competitiveness of textile enterprises under conditions of ongoing innovative transformations in the economy. It explores how global innovation trends, digital transformation processes, technological modernization, effective utilization of production resources, enhancement of value-chain efficiency, and the evolution of strategic management mechanisms collectively influence the competitiveness of the textile industry. The study also highlights the formation of innovation potential, the strategic significance of human capital, the mechanisms for creating competitive advantages, and the principles of achieving sustainable development. The findings offer valuable theoretical and practical insights for improving strategic development models and management approaches in textile enterprises operating within an innovation-driven economy.

Key words: competitiveness, textile industry, innovation development, digital transformation, resource-based approach, innovation potential, value chain, strategic management, technological modernization, human capital, competitive advantages, sustainable development.

Аннотация. В данной статье представлен углублённый анализ научно-теоретических основ управления конкурентоспособностью текстильных предприятий в условиях масштабных инновационных преобразований в экономике. Рассматривается комплексное влияние глобальных тенденций инновационного развития, процессов цифровой трансформации, технологической модернизации, эффективного использования производственных ресурсов, повышения эффективности цепочек создания стоимости и совершенствования механизмов стратегического управления на конкурентоспособность текстильной отрасли. Кроме того, раскрываются вопросы формирования инновационного потенциала предприятий, значимость человеческого капитала, механизмы создания конкурентных преимуществ и принципы достижения устойчивого развития. Полученные выводы обладают существенной научно-практической ценностью для совершенствования стратегических моделей развития и управленческих подходов текстильных предприятий в условиях инновационной экономики.

Ключевые слова: конкурентоспособность, текстильная промышленность, инновационное развитие, цифровая трансформация, ресурсно-ориентированный подход, инновационный потенциал, цепочка создания стоимости, стратегическое управление, технологическая модернизация, человеческий капитал, конкурентные преимущества, устойчивое развитие.



KIRISH

Korxonalarining bozor sharoitlariga moslashib borishi, ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, innovatsiyalar hamda fan-texnika yutuqlarini joriy etishga yo'naltirilishi, ishlab chiqarish ko'lamining oshirilishi, tovarlar assortimentining kengaytirilishi va foyda tushumlarining ko'paytirilishi bugungi iqtisodiy taraqqiyot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning barcha sohalarida jadal rivojlanayotgani modernizatsiya jarayonlarini zamonaviy innovatsion g'oyalar, ilg'or ishlanmalar va ilg'or texnologiyalarga tayangan holda amalga oshirishni talab qiladi. Bu esa mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez, izchil va sifatli ilgarilashiga xizmat qiluvchi strategik omildir. Innovatsion iqtisodiyot rivojlangani sayin mamlakatda o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish ortib boradi; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsion ishlanmalar bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi; har bir shaxs innovatsion g'oya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga intiladi; har bir tarmoq esa xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi korxonalar bilan raqobatlasha olish darajasiga yetadi.

Bugungi kunda innovatsiya bozor ehtiyojlarini yanada samarali qondirish, ishlab chiqarish xarajatlarini raqobatchilarga nisbatan kamaytirish va tadbirkorning sof foydasini oshirishning asosiy vositasiga aylanib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni shakllantirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya, klasterlashuv, marketing strategiyalari va global qiymat zanjirlarida ishtirok etish kabi omillarning muhimligini ko'rsatadi. Gordon va McCann tomonidan ishlab chiqilgan sanoat klasterlari nazariyasi hududiy kooperatsiya, innovatsion almashinuv va ishlab chiqarish zanjiridagi o'zaro bog'liqlik tarmoqning umumiy raqobatbardoshligini kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi [1]. Iqtisodiyotning innovatsion bosqichga o'tishi sharoitida Druker bilim resurslari, boshqaruv samaradorligi, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion fikrlashning bozor raqobatida hal qiluvchi omilga aylanishini asoslaydi [2], [3], bu esa to'qimachilik korxonalarining modernizatsiya jarayonlari bilan bevosita mos tushadi.

Mahalliy adabiyotlarda raqobatbardoshlikning marketing strategiyalari, innovatsion salohiyat, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish orqali oshirilishi ta'kidlanadi. Musayeva va Salomov to'qimachilik sanoatida marketing strategiyalarining bozor pozitsiyasiga ta'sirini empirik dalillar asosida ko'rsatib, strategik boshqaruvning ahamiyatini ta'kidlaydi [4]. Shoislomova raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi strukturaviy to'siqlarni tahlil qilib, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish optimallashtirilishi zarurligini asoslaydi [5]. Muminova esa O'zbekiston to'qimachilik bozorining holatini o'rganib, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish uchun diversifikatsiya va modernizatsiya muhimligini ko'rsatadi [6].

Xalqaro manbalar raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion transformatsiya, raqamli iqtisodiyot va global integratsiyaning rolini yanada chuqurroq yoritadi. Menghan va Xiaokang global to'qimachilik markazlari bilan taqqoslash orqali innovatsiya, texnologik tayyorgarlik va mehnat unumdorligining tarmoq raqobatbardoshligidagi ustuvor o'rni haqida xulosa qiladi [7]. Akhuand statistik modellashirish asosida raqobatbardoshlik determinantlarini aniqlab, innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish samaradorligining hal qiluvchi rolini ko'rsatadi [8]. Qader, Bresciani va Bilal bilimlarni boshqarish, barqaror ishlab chiqarish amaliyotlari va korporativ innovatsiya korxonalar samaradorligini oshirishini empirik tarzda tasdiqlaydi [9]. Li, Zhu va Zhang esa raqamli iqtisodiyotning global qiymat zanjiri bo'ylab yuqori texnologik bosqichlarga o'tishda strategik ahamiyatga egaligini ko'rsatadi [10].

Mazkur ilmiy manbalar birgalikda tahlil qilinganda, to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish innovatsion modernizatsiya, raqamli transformatsiya, klasterlashuv, bilimlarni boshqarish, strategik marketing va global integratsiya kabi omillar bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy asoslangan holda tasdiqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi to'qimachilik korxonalarida raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi omillarni nazariy va empirik manbalarga tayangan holda kompleks tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda raqobat ustunliklari, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, iqtisodiy klasterlashuv va strategik boshqaruvga oid ilmiy yondashuvlar birlashtirildi. Xususan, sanoat klasterlarining ichki aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik orqali tarmoqlar raqobatbardoshligini kuchaytirishini asoslovchi Gordon va McCann yondashuvi raqobat muhiti chuqur tahlilida nazariy asos sifatida qo'llandi [1]. Shuningdek, innovatsion rivojlanishning iqtisodiyot barqarorligidagi roli, bilim resurslarining ahamiyati va texnologik yangilanishning boshqaruv sifatiga ta'sirini yoritib bergan Druker konsepsiyalari tadqiqotning metodik yo'nalishini shakllantirishda muhim nazariy manba bo'ldi [2], [3].

Mahalliy sharoitni o'rganish maqsadida O'zbekiston to'qimachilik sanoatiga oid ilgor empirik tadqiqotlar tahlil qilindi. Bunda marketing strategiyalari, mahsulot pozitsiyalash, iste'mol bozori tendensiyalari va innovatsion




boshqaruv modellarining samaradorlikka ta'siri haqidagi ilmiy dalillar asosiy empirik kontekstni belgilab berdi. Musayeva va Salomov to'qimachilik korxonalarida marketing strategiyalarining qo'llanishi raqobatbardoshlikka qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib bergan bo'lsa [4], Shoislomova raqobatbardoshlikni cheklayotgan strukturaviy muammolarni tahlil qilgan va sanoatning texnologik modernizatsiya jarayonlarini baholagan [5]. Muminovanning mahalliy bozor holati va eksport salohiyatiga doir tadqiqoti esa tarmoqning strategik ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga yordam berdi [6].

Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlar ham tadqiqot metodologiyasiga integratsiya qilindi. Xususan, global qiymat zanjirlarida ishtirok etish, raqamli iqtisodiyotga moslashish va innovatsion modernizatsiyaning tarmoq samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar asos sifatida olindi. Menghan va Xiaokang tahlillari orqali global raqobat ko'rsatkichlarini baholash yondashuvi qo'llanildi [7], Akhuand tomonidan ishlab chiqilgan raqobatbardoshlik determinantlarini statistik modellashtirish tajribasi tahliliy qismning metodik poydevorini mustahkamladi [8]. Qader va hamkorlarining bilimlarni boshqarish, korporativ innovatsiya va barqaror amaliyotlar korxona samaradorligiga ta'sirini o'rganuvchi modeli esa raqobatbardoshlikning zamonaviy omillarini aniqlashga xizmat qildi [9]. Li, Zhu va Zhang tomonidan taklif etilgan raqamli iqtisodiyot parametrlarining sanoat modernizatsiyasiga ta'sirini baholash yondashuvi metodologiyaning innovatsion tarkibini yanada boyitdi [10].

Tadqiqot jarayonida tizimli adabiyotlar tahlili, nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va empirik natijalarni solishtirish kabi ilmiy-uslubiy vositalar qo'llandi. Ushbu yondashuvlar orqali raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar o'zaro bog'liqlikda baholandi, tarmoqdagi transformatsion jarayonlarning ta'siri aniqlashtirildi va to'qimachilik korxonalarining raqobat pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligi innovatsion iqtisodiyot sharoitida o'zaro bog'langan determinantlar majmuasi orqali shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu determinantlar M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan "Olmos modeli" konsepsiyasi orqali tizimli ravishda baholanishi mumkin bo'lib, 1 rasmda ushbu yondashuvning asosiy tarkibiy qismlari aks ettiriladi. Model tarmoqning ichki imkoniyatlari, bozor talabi, qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar, korxona strategiyasi va tashqi omillarni yagona tizim sifatida baholash imkonini beradi [1].



1-rasm. Tarmoqda raqobatbardoshlikni belgilab beruvchi determinantlar guruhi (M. Porter modeli)

Modelning birinchi determinanti — ishlab chiqarish omillari sharoitlari — raqobatbardoshlikning poydevorini tashkil qiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va raqamli boshqaruv tizimlarini kengaytirish korxonalarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi bo'yicha xalqaro empirik tadqiqotlar mavjud. Menghan va Xiaokangning (2022) tadqiqotlari global to'qimachilik markazlarida



innovatsion yangiliklar bilan ishlovchi korxonalarda mehnat unumdorligi va mahsulot sifati sezilarli ravishda oshganini ko'rsatadi [7]. Shuningdek, Akhuand (2023) tomonidan ishlab chiqilgan modellashirish natijalariga ko'ra, innovatsion faoliyat darajasi yuqori bo'lgan korxonalar raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha boshqalardan ustunlik qiladi [8]. Druker tomonidan yoritilgan bilimga asoslangan boshqaruv tamoyillari ham ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash korxona samaradorligini tubdan o'zgartirishi mumkinligini ta'kidlaydi [2], [3]. Modelning ikkinchi tarkibiy qismi — talab sharoitlari — tarmoqning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Xalqaro to'qimachilik bozorida ekologik toza mahsulotlar, premium segmentga xos innovatsion dizaynlar, energiya tejovchi matolar va funksional tekstil mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Gereffining global qiymat zanjirlari bo'yicha tadqiqotlari global talabning murakkablashuvi korxonalardan yuqori moslashuvchanlikni talab qilishini, xalqaro standartlarga moslashgan korxonalar esa eksport bozorida raqobat ustunligiga erishishini ko'rsatadi [9]. Muminova tomonidan olib borilgan tahlillar esa O'zbekistonda ichki talabning differensiallashuvi — ayniqsa sifatga, ekologiyaga va texnologik innovatsiyalarga e'tibor ortishi — raqobatbardoshlikni oshiruvchi rag'batlantiruvchi omilga aylanganini ko'rsatadi [6]. Modelning uchinchi determinanti — qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar va infratuzilma — klasterlashuv samaradorligi va tarmoqning umumiy rivojlanish sur'atlarini belgilaydi. Gordon va McCannning klasterlashuv nazariyasi mahalliy yetkazib beruvchilar, texnologik xizmat ko'rsatuvchilar va logistika tizimining rivojlanganligi innovatsion almashinuvni tezlashtirishini, xarajatlarni kamaytirishini va raqobatbardoshlikni oshirishini ilmiy asoslaydi [1]. Muminova va boshqa mahalliy tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, O'zbekistonda to'qimachilik klasterlari va davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma eksport salohiyati va ishlab chiqarish barqarorligining oshishiga bevosita ta'sir qilmoqda [6]. Modelning navbatdagi elementi — korxona strategiyasi, tuzilmasi va ichki raqobat — innovatsion yondashuvlar samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Akhuandning (2023) statistik modellariga ko'ra, strategik innovatsiya, texnologik modernizatsiya va mahsulot differensiallashuvi yuqori bo'lgan korxonalar global bozor raqobatida sezilarli ustunlikka ega bo'ladi [8]. Qader, Bresciani va Bilal (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bilimlarni boshqarish, korporativ innovatsiya va barqaror ishlab chiqarish amaliyotlari korxonaning umumiy samaradorligi va raqobatbardoshligiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [9]. Druker (2007) strategik boshqaruvning sifati va innovatsiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini belgilovchi eng muhim omillar ekanini ta'kidlaydi [3]. Modelning beshinchi determinanti — hukumatning roli — to'qimachilik sanoatini qo'llab-quvvatlashdagi siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Gereffi (2020) sanoat siyosati, bojxona imtiyozlari, eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va texnologik modernizatsiya dasturlari to'qimachilik sanoatini global qiymat zanjirlarida yuqoriroq pog'onalariga ko'targanini qayd etadi [9]. O'zbekiston tajribasi ham buni tasdiqlaydi: so'nggi yillarda klaster tizimi, eksport imtiyozlari, zamonaviy texnologiyalarga investitsiyalar tarmoqqa sezilarli sur'atlarda rivojlanish olib kirgan [5], [6]. Modelni yakunlovchi — tashqi (tasodifiy) omillar — global iqtisodiy tebranishlar, pandemiyalar, transport-logistika zanjirlaridagi uzilishlar va xomashyo narxlarining o'zgarishi kabi omillar hisoblanadi. Ketchen va Craighead (2020) ta'kidlaganidek, global shoklarga chidamli ta'minot zanjirlarini shakllantirgan korxonalar iqtisodiy beqarorlik sharoitida ham raqobatbardoshligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi [12].

Yuqoridagi ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, 1-rasmda aks ettirilgan determinantlar o'zaro uzviy bog'liq holda to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni belgilovchi kompleks tizimni yaratadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish [7], raqamli va bilimga asoslangan menejment amaliyotlarini kuchaytirish [9], strategik boshqaruvni takomillashtirish [3], global qiymat zanjirlarida faol ishtirok etish [9] hamda davlat siyosatining qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlari [5], [6] tarmoqning umumiy raqobat salohiyatini oshiruvchi asosiy omillardir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligi innovatsion iqtisodiyot sharoitida bir-biriga bog'liq determinantlar tizimi orqali shakllanadi. Tarmoqning raqobat salohiyani aniqlovchi asosiy omillar — ishlab chiqarish imkoniyatlari, bozor talabi, qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar, strategik boshqaruv va tashqi sharoitlar — Porter modelida ta'kidlanganidek, yagona mexanizm sifatida ishlaydi [1]. Innovatsion modernizatsiya, raqamli transformatsiya va ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishi korxona samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan bo'lib, xalqaro tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalangan korxonalar sezilarli ustunlikka ega bo'lishi qayd etilgan [7], [8]. Talabning murakkablashuvi, ekologik me'yorlarning kuchayishi va global bozorlarda sifat standartlari oshib borayotgan bir paytda, bozor ehtiyojiga mos mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda; global qiymat zanjiri tahlillari ham ana shunday kompaniyalar xalqaro bozorlarda ustunlikka erishishini ko'rsatadi [9]. O'zbekiston sharoitida to'qimachilik klasterlari, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi, logistika imkoniyatlarining kengayishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar tarmoqning ichki va tashqi bozorlarda barqaror pozitsiya egallashiga zamin yaratmoqda, bu jarayon mahalliy tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan [5], [6]. Bunday qo'llab-quvvatlovchi omillar xalqaro tajribada ham muhim o'rin



tutadi; ilmiy adabiyotlarda korxonalar o'rtasidagi yaqin hamkorlik, texnologik almashinuv va klasterlashuvning ijobiy iqtisodiy natijalar berishi alohida qayd etilgan [1]. Tashqi sharoitlarning o'zgaruvchanligi, jumladan global iqtisodiy tebranishlar, pandemiyalar va ta'minot zanjiridagi uzilishlar korxonalar barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida barqaror va moslashuvchan ta'minot zanjiri yaratish ustuvor strategiya sifatida qaralmoqda [12]. Umuman olganda, to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, strategik boshqaruv salohiyatini kuchaytirish, ichki va global bozorlarga moslashuvchanlikni oshirish, klasterlashuv mexanizmlaridan samarali foydalanish va davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosatidan oqilona foydalanish zarur. Ushbu omillar o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanganda, tarmoqning raqobat salohiyati mustahkamlanadi va korxonalar global iqtisodiy muhitda barqaror o'sish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gordon, I. R., & McCann, P. (2000). Industrial clusters: Complexes, agglomeration and/or social networks? *Urban Studies*, 37(3), 513–532. <https://doi.org/10.1080/0042098002096>
2. Друкер, П. (1999). Посткапиталистическое общество. Москва: Academia.
3. Друкер, П. (2007). Практика менеджмента. Москва: Вильямс.
4. Shoislomova, N. Q. (2021). Challenges to increase the competitiveness of the textile industry in the context of structural change. *Turkish Journal of Interdisciplinary and Innovative Research*, 3(4), 189–194. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue04-27>
5. Muminova, N. M. (2021). Status and development prospects of the textile and knitwear market in Uzbekistan. *International Journal of Business, Economics & Management*, 4(2), 287–291. <https://doi.org/10.31295/ijbem.v4n2.1638>
6. Menghan, G., & Xiaokang, Z. (2022). Comparison of competitiveness of the textile industry between China and the world's three major textile centers. *International Journal of Business Studies and Innovation*, 2(3), 1–9. <https://doi.org/10.35745/ijbsi2022v02.03.0001>
7. Akhuand, A. (2023). Modeling determinants of competitiveness: A case of textile sector of Pakistan. *The Journal of The Textile Institute*, 114(1), 1–15. <https://doi.org/10.1080/00405000.2021.2020415>
8. Qader, A. A., Bresciani, S., & Bilal, A. R. (2022). Linking knowledge management practices of textile SMEs with sustainable entrepreneurship and organizational performance. *Sustainability*, 14(4), 2219. <https://doi.org/10.3390/su14042219>
9. Li, W., Zhu, Y., & Zhang, J. (2023). Global value chains, digital economy, and upgrading of China's manufacturing industry. *Sustainability*, 15(10), 8003. <https://doi.org/10.3390/su15108003>
10. Ketchen, D. J., & Craighead, C. W. (2020). Supply chain resilience and competitive advantage in rapidly changing markets. *Journal of Business Logistics*, 41(2), 92–108. <https://doi.org/10.1111/jbl.12203>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>